

ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING DAVLATI VA HARBIY YURISHLARI

Yo'ldoshov Eldor Sultonboy o'g'li

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning hayoti, harbiy yurishlari, davlat tutumi va yo'riqlari, harbiy usullari, va iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini o'rganadi. Aleksandr haqidagi ma'lumotlar tarixni aniq va ravshan qilishga va umumiyashtirishga yordam beradi. Aleksandr faoliyatini o'rganish, shu davr tarixiy hayotini yoritish va uning olib borgan siyosati qanchalik to'g'ri shuningdek qanchalik jamiyatga ta'siri va boshqa bir qancha masalalar ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются жизнь, военные походы, государственная политика и руководство, военные методы, экономическая и социальная политика Александра Македонского. Сведения об Александре помогают уточнить и обобщить историю. Изучение деятельности Александра, Основная цель данная статья призвана пролить свет на историческую жизнь этого периода и на то, насколько правильной была его политика, а также насколько она повлияла на общество и ряд других вопросов.*

Abstract: *This article examines the life, military campaigns, state policy and leadership, military methods, and economic and social policy of Alexander the Great. The information about Alexander helps to clarify and generalize the history. Studying the activities of Alexander, The main goal of this article is to shed light on the historical life of this period and how correct his policy was, as well as how much it affected the society and several other issues.*

Kalit so'zlar: *Makedoniya, Afina, Aristotel, Sharqqa yurish, diadoxlar urushi, Doro III, Bess*

Ключевые слова: *Македония, Афины, Аристотель, Поход на Восток, Диадохийская война, Дарий III, Бесс*

Keywords: *Macedonia, Athens, Aristotle, March to the East, Diadochian War, Darius III, Bess*

Qadimgi dunyo tarixida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan, o'z davrida yarasha kuchli davlat qura olgan olgan shaxs Aleksandr Makedonskiydir. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 356-yilda Pellada shahrida dunyoga keladi. Otasi Makedoniya podshohi Filipp II, uning onasi Olimpidir. Otasi Aleksandrni yoshligidan mashhur yunon olimlar Aflotun, Arstu (Aristotel) kabi olimlardan saboq olish uchun maktabga bergan hama qatori. Aleksandrga harbiy ish shaxsan o'z otasi tomonidan o'rgatilgan. Aleksandr shu tariqa janglarda chiniqaboshlayi vaharbiy mahorati ham osha boradi, keyinchalik kuchli qo'shin bilan katta hududlarni istilo qiladi.

Aleksandr miloddan avvalgi 336-yil otasi Filipp II vafot etishi munosabati bilan bilan Makedoniya podshosi taxtiga o'tiradi. U taxtga chiqishi bilan istilochilik yurishlarini amalga oshira boshlaydi. U taxtga o'tirganda 20 yoshda edi. Er. avv. 336-yil yozida Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldirildi. 20 yoshli Iskandar keyin podsholik taxtiga chiqdi. Filipp II ning o'limidan foydalangan yunon shaharlari Fiva shahri boshchiligida Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Yunonlar uchun kutilmagan holda Iskandar bu qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Fiva shahri vayron qilib tashlaydi, uning tirik qolgan qo'zg'olonchi aholini qul qilib sotib yubordi. Ikki yildan keyin er. avv. 334-yilda nihoyatda puxta tayyogarlikdan keyin yunon shaharlari piyodalari bilan kuchaytirilgan makedon qo'shinlari Gellespont bo'g'ozidan o'tib Osiyo hududiga kirdilar.

Kichik Osiyoni bosib olishni tugallab, Iskandar Kilikiya orqali shimoliy Suriyaga o'tdi. Er. avv. 333-yil kuzida Issa shahri yonida yunon-makedonlar Doro

III qo'shinlari bilan to'qnashdilar. Har ikki tomon uchun bu jang og'ir bo'lib, katta qurbonliklar berildi. Fors qo'shinlari son jihatdan yunon-makedonlarga ko'ra ko'p edi. Iskandar juda katta qiyinchilik bilan g'alaba qildi. Doro III zo'rg'a qochib qutildi. Bu jang Suriya va Falastin qirg'og'ini bosib olish uchun yo'l ochdi.

Damashq shahrida Doro IIIning xazinasi bosib olindi, bu Iskandar qo'shinlarining moddiy ta'minotini ancha yaxshiladi. Tir va G'azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. G'azoni bosib olinishi yunon-makedonlarga Misrga yo'l ochdi. Doro III yordamidan mahrum bo'lib qolgan fors satrapi g'oliblarga taslim bo'ldi. Misrliklar Iskandarni fors zulmidan xaloskor sifatida kutib oldilar.

O'rtayerdengizi qirg'og'ida Nil daryosida er. avv. 331-yilda Iskandariya shahriga asos solindi. Bu shahar Misrda yangi hokimiyatni markazi, muhim savdo porti bo'lib xizmat qildi. Misr hududiga bu shaharga asos solinishi Sharqda shaharlar qurilishi siyosatini boshlanishi edi.

Iskandar Memfis shahrida toj kiydi va bu bilan Misrda o'z hokimiyati qonuniyligini ta'kidladi. Iskandar er. avv. 329-yilda Amudaryodan o'tib O'rta Osiyoga kirdi, bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshchigida sak massagetlar 3 yil davomida Iskandar qo'shinlariga qarshi turdilar. Ilojsiz qolgan Iskandar mahalliy zodagonlarni sovg'a-salom bilan o'zi tomoniga og'dirib olishga urindi So'g'd hokimi Oksiartni qizi Ravshanakka uylandi.

Rivoyatlarga ko'ra Iskandar O'rta Osiyoda o'z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar quradi. Tarixda ma'lum bo'lgani hozirgi Xo'jand shahri yaqinida Iskandariya Esxota (Uzoqdagi Iskandariya) shahri, Afg'onistonda Hirot shahri yaqinida Iskandariya Ariya shahri. Er. avv. 327-yilda Iskandar Hindukush tog'lari orqali Hindistonga o'tdi. shimoliy Hindistondagi Gidas daryosi bo'yida Iskandar qo'shinlari Panjob hukmdori Por qo'shinlari bilan to'qnashib, o'zining oxirgi g'alabasiga erishdi (Er. avv. 326-yil). Aleksandr O'rta Osiyodagi ko'plab hududlarni bosib oladi. Farg'ona, Xorazm, Toshkent kabi hududlar o'z mustaqilligicha qoldi.

Iskandar yurishlari natijasida g'arbda Adriatika dengizidan Sharqqa

Hindistongacha, Shimolda Kavkaz tog'laridan janubda Nil daryosi o'rta oqimigacha cho'zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi. Bu davlat hududiyetnik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan avvalgi ahamoniylar davlatini eslatar edi. Iskandar o'zining ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi. U er. avv. 323-yilda 32 yoshda Bobil shahrida vafot etdi. Iskandarning o'limidan so'ng uning ulkan davlati parchalana ketdi. Oxir-oqibatda u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandi.

Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishlari vaqtdan boshlab, O'rtayer dengizining katta qismi Misr, Kichik va Old Osiyo, uning atrofidagi hududlar, O'rta Osiyoning janubiy va markaziy Osiyoning bir qismi, Hind daryosining quyi oqimigacha ularning tarixi taraqqiyotini yangi Ellin davri boshlandi.

Xulosalar: Aleksandr Makedonskiy shaxsini o'rganar ekanmiz u tuzgan davlat qadimgi dunyo tarixida ulkan ,salobatli davlat ekanligini hisobga olgan holda, oydinlik kiritishga shuningdek tarixni umumiyashtirishga xizmat qiladi.Uning olib borgan yurishlaridan keyin boy yunon madaniyati kirib kelishi natijasida madaniyatimizning boyishi va shuningdek ular ham bizning madaniyatimizning sohalaridan xabar topishi shu va shunga o'xshash sabablar bo'lganligi o'sha davrda bizning hududimizda davlat uyishmalari mavjudligini ,ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy madaniyat borligini yana bir karra isbotlaydi.Aleksandr Makedonskiy shaxsini o'rganish demak tarixning asosiy vazifasidan biri va hozirgi kunda olimlar tomonidan Aleksandr shaxsiga oid ilimiy izlanishlar va tadqiqotlar ko'plab mamlakatlarda olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov R.R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq,Yunoniston, Rim).T.,<<Fan va texnologiya>>,2009 , 440 bet.
- 2.A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy.Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf darsligi).Toshkent:<<Yangiyo'l poligraf servis>>,2017. -192 bet.
- 3.Sagdullayev A.S.Qadimgi o'rta Osiyo tarixi.-T.:2004